

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

2026  
mart

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN  
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya  
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:  
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA  
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH  
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR  
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF  
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE  
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL  
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN  
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:  
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО  
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ  
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ  
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

**3-MAXSUS SON**



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.  
2026-yil, mart.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Iloxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

ICT week Uzbekistan 2025: Milliy texnologiyalar haftaligining yakunlari va ularning O'zbekiston IT-ekotizimiga ta'siri.....16  
**Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



# ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEKNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O‘ZBEKISTON IT- EKOTIZIMIGA TA’SIRI

## Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi

akmalsher2000@yahoo.com

<https://orcid.org/0009-0004-2074-264X>

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda “ICT WEEK O‘zbekiston 2025” haftaligi misolida mamlakatda raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi — institutsional branding, texnologik sheriklik va mintaqaviy integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifatli (kvalitativ) va indikatorga asoslangan yondashuv qo‘llanilib, IT Park Uzbekistan ekotizimi atrofida shakllangan siyosiy, moliyaviy va innovatsion mexanizmlar o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston global IT zanjirida “ijrochilik” modelidan “strategik sheriklik” modeliga o‘tmoqda. BPO/ITO xizmatlari, venchur investitsiyalar, startap ekotizimi, intellektual mulk kapitalizatsiyasi hamda mintaqaviy klaster integratsiyasi milliy IT-xizmatlar eksporti va venchur bozori likvidligini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotda O‘zbekistonning Yevroosiyodagi texnologik yadro sifatida shakllanishini jadallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ICT WEEK O‘zbekiston 2025, raqamli transformatsiya, IT Park Uzbekistan, outsorsing, venchur investitsiya, startap ekotizimi, intellektual mulk, mintaqaviy integratsiya.

**Abstract:** This paper analyzes the new stage of Uzbekistan’s digital transformation — institutional branding, technological partnership, and regional integration — through the case of “ICT WEEK Uzbekistan 2025.” A qualitative and indicator-based research approach was applied to examine the political, financial, and innovation mechanisms formed around the IT Park Uzbekistan ecosystem. The results demonstrate that Uzbekistan is shifting from an “executive-performer” model to a “strategic partnership” model within the global IT value chain. Developments in BPO/ITO services, venture investments, startup ecosystems, intellectual property capitalization, and regional cluster integration serve as key factors driving the growth of national IT service exports and venture market liquidity. The study also provides practical recommendations aimed at strengthening Uzbekistan’s position as a technological core in Central Eurasia.

**Key words:** ICT WEEK Uzbekistan 2025, digital transformation, IT Park Uzbekistan, outsourcing, venture capital, startup ecosystem, intellectual property, regional integration.

**Аннотация:** В данной статье на примере «ICT WEEK Uzbekistan 2025» анализируется новый этап цифровой трансформации Узбекистана — институциональный брендинг, технологическое партнёрство и региональная интеграция. В исследовании применён качественный и индикаторный подход, в рамках которого изучены политические, финансовые и инновационные механизмы, сформированные вокруг экосистемы IT Park Uzbekistan. Результаты показывают, что Узбекистан переходит от модели «исполнителя» к модели «стратегического партнёра» в глобальной IT-цепочке. Развитие BPO/ITO-сервисов, венчурных инвестиций, стартап-экосистемы, капитализация интеллектуальной собственности и формирование региональных кластеров выступают основными факторами роста экспорта IT-услуг и ликвидности венчурного рынка. В работе представлены практические рекомендации по укреплению роли Узбекистана как технологического ядра Центральной Евразии.

**Ключевые слова:** ICT WEEK Uzbekistan 2025, цифровая трансформация, IT Park Uzbekistan, аутсорсинг, венчурные инвестиции, стартап-экосистема, интеллектуальная собственность, региональная интеграция.



## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy modelida raqamli transformatsiya ustuvor yo'nalish sifatida shakllandi. IT Park Uzbekistan atrofida jamlangan siyosat paketlari, soliq imtiyozlari rejimi, xorijiy rezidentlar uchun soddalashtirilgan kirish tartiblari va eksportga yo'naltirilgan xizmatlar portfeli mamlakatning global IT-zanjiriga integratsiyasini tezlashtirdi.

"ICT WEEK O'zbekiston 2025" shu jarayonning sinov maydoni va vitrini bo'lib, unda 87 mamlakatdan 850 dan ortiq xorijiy kompaniya va tashkilot vakillari ishtirok etgani, umumiy qatnashuv 1500 nafardan oshgani milliy ekotizimning xalqaro signal kuchini ko'rsatadi. Haftalik yakunida 9 ta xalqaro memorandum, qariyb 896,2 ming dollarlik investitsiya hujjatlari, 10 million dollarlik venchur kelishuvlari, 20 dan ortiq xorijiy kompaniyaning ofis ochish niyati va "One Stop Shop" orqali 15 ta yangi xorijiy rezident jalb etilgani qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichlar nafaqat PR-voqealar to'plami, balki siyosat, kapital va kompetensiyalar oqimini kuchaytiruvchi tizimli mexanizm sifatida talqin etilishga loyiq.

Tadqiqot kvalitativ va indikatorga asoslangan yondashuvni qo'llaydi. Birinchidan, ICT WEEK doirasidagi miqdoriy ko'rsatkichlar (qatnashuvchilar soni, memorandumlar, investitsiya majburiyatlari, venchur kelishuvlari, startaplar soni, ofis ochish niyatlari) "tezkor indikatorlar" sifatida qabul qilinadi. Ikkinchidan, "klaster mantiqi" asosida texnoparklararo integratsiya, BPO/ITO xizmatlari, game-dev, ta'lim hamda venchur infratuzilmasi bo'yicha alohida segmentlar o'rganiladi. Uchinchi yo'nalishda "institutsonal iqtisodiyot" va "innovatsion tizimlar" nazariyalariga tayangan holda, siyosat dizayni va regulyator vositalarining bozor natijalariga uzatish kanallari sharhlanadi. Shuningdek, transchegaraviy kapital oqimi, "investor readiness" va global networking'ning startaplar uchun "signal effekti" baholanadi.

"Yevrosiyo texnoparklari" stendi IT Park Uzbekistan (IT Park Capital, IT Park Ventures, IT Park University, Enterprise Uzbekistan) hamda mintaqadagi hamkor platformalar — "Astana Hub", Qirg'iziston HT Park, Ozarbayjon IDDA va Turkmaniston Startup Academy — o'rtasidagi integratsiyani vizuallashtirdi. Bu uch yo'nalishda samarali:

Signal effekti: O'zbekiston mintaqaviy raqamli bozor qurilishida yadroviy o'yinchi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'lim–ishlab chiqarish bog'lanishi: IT Park University va mintaqaviy akademiyalar hamkorligi kadrlar yetkazib berishning barqaror zanjirini yaratadi.

Xizmat klasterlari: Enterprise Uzbekistan kabi institutlar startaplar va eksportyorlar uchun "yagona deraza" tizimining ichki komponentlarini kuchaytiradi.

Shuningdek, "Tech Alliance" rezidentlar xiyobonida 17 kompaniyaning BPO/ITO yechimlari namoyish etilishi O'zbekistonning outsorsingdagi qiymat taklifini aniq shakllantirdi. "BPO Community" tashabbusi — brendlash, standartlashtirish va eksportni targ'ib etishda platformaviy yondashuvni bildiradi.

"Shared Services & Offshore Outsourcing 2025" konferensiyasi O'zbekistonning yangi global outsorsing markaziga aylanish omillarini (soliq imtiyozlari, viza afzalliklari, kadrlar salohiyati, xizmat sifati) muhokama maydoniga chiqardi. Konferensiyaning amaliy bosqichida IT Park mutaxassislari yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishdan tortib bank operatsiyalarigacha bo'lgan yo'l xaritasini taqdim etdilar. Bu — biznesni boshlashdagi tranzaksion xarajatlarni kamaytiruvchi, vaqtni qisqartiruvchi va xavflarni prognozlaydigan institutsional xizmatdir. Natijada, 20 dan ortiq xorijiy kompaniyaning ofis ochish niyati, "One Stop Shop" dasturi orqali 15 ta yangi xorijiy rezident va 1000 ta ish o'rni yaratish rejasi mantiqan asosli ko'rinadi.

"Uzbekistan–Japan ICT Forum" doirasida yapon tilida so'zlashuvchi mutaxassislarni tayyorlash hamda Toshkentda Yaponiya bozori uchun ixtisoslashgan markaz ochish g'oyasi yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksport xizmatlari uchun "til–madaniyat–standart" triadasidagi eng muhim bo'g'inni mustahkamlaydi. Bunda raqamli diplomatiya elementi ham mavjud: Yaponiyaga yo'naltirilgan xizmatlar ekotizimida metodik, etik va sifat standartlarini "import qilish" orqali milliy xizmatlar eksportining ishonchligi oshadi.

"Game GAP 2025" forumida "Tencent", "Voodoo", "Grimore Entertainment", "East Games" kabi yirik o'yin studiyalari vakillarining ishtiroki ekotizimni global tarmoq bilan bog'laydigan mahorat va talab signalidir. Yakunda "Hello World", "BeNice Games", "RedBall Dynamics" va "IndieGO" kompaniyalarining O'zbekistonda ofis ochish qarori game-dev sohasining oddiy outsorsingdan intellektual mulk yaratuvchi bosqichga o'tish potensialini tasdiqlaydi. Bu segmentda IP (intellectual property) kapitalizatsiyasi va ko'p yillik royalti asosidagi daromad olish kanallari shakllanadi.

"Uzbek–Korean BPO Forum" yakunlari (6 ta kelishuv, 3 ta pilot outsorsing loyihasi va 3 ta memorandum) ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning "ijrochi pudratchi" modelidan "qo'shma qiymat yaratish" modeliga o'tish jarayonini ifodalaydi. Ushbu yondashuv doirasida texnologik transfer, metodologik standartlar va xizmat sifatining metrik tizimlari bo'yicha hamkorlik chuqurlashadi.

"Startup & Venture" sammitida O'zbekiston startap ekotizimi qiymatining so'nggi yillarda 3,9 milliard AQSh dollarigacha (13 barobar) kengaygani ta'kidlandi. DOMiNO Ventures'ning 20 million dollarlik xalqaro fondi



(UzVC asosiy investor sifatida), “AloqaVentures”ning 750 ming dollarlik bitimlari hamda IT Park Ventures’ning AWS Activate bilan hamkorligi mamlakat startup sektorida kapital va infratuzilma integratsiyasining yaqqol namunasidir. “United Ventures”, “Astana Hub Ventures” hamda “United Ventures” – “Yoshlar Ventures” o’rtasidagi memorandumlar Markaziy Yevrosiyo venchur makonini “birlashtiruvchi klaster” sifatida shakllantirishga xizmat qilmoqda. “Cross-Border Capital Dialogues” doirasida 45 ta fond, jumladan 25 ta xalqaro investor ishtirok etib, transchegaraviy sarmoyaning “iqtisodiy og’irlik markazi” tobora Toshkentga siljiyotgani ta’kidlandi.

“Investors Room” tadbirida 55 ta startup 28 ta venchur fondi va biznes farishtalari oldida o’z loyihalarini taqdim etdi. “Yoshlar Ventures” jamg’armasi 3 ta loyihaga (Inter AI – \$38 ming, Hisobchi AI – \$37,5 ming, Educoin – \$20,7 ming) sarmoya kiritdi. Umumiy hisobda 10 million dollarlik yumshoq majburiyatlar (soft commitments) olindi.

Toshkent MDH davlatlari orasida birinchi bo’lib Web Summit tarmog’ining Spotlight tadbirini qabul qildi. 400 dan ortiq ishtirokchi, 90 dan ziyod xalqaro ekspert va investorlar hamda “Startup Alley”da 20 ta startup ishtiroki mamlakatning global texnologik muloqot markaziga aylanishidagi muhim brending yutug’ini ifodalaydi. Panel muhokamalari (global VC tendensiyalari, yangi bozorlarga kirish strategiyalari, Markaziy Osiyoning global qiymat zanjiridagi o’rni, AI/XR/korporativ innovatsiyalar) O’zbekiston ekotizimining jahon texnotendensiyalari bilan uyg’un rivojlanayotganini ko’rsatdi.

“Investor Readiness” intensiv kurslari va “Founders without Borders” seminari (School 21 bilan hamkorlikda) 400 dan ortiq ishtirokchini qamrab olib, Stanford, MIT va Crunchbase kabi manbalardan bilim transferini ta’minladi. Bu jarayon startaplari uchun “global bozor mosligi” (product–market fit, PMF) madaniyatini shakllantirib, “soft capital” — ya’ni bilim, tarmoq va metodologiyani — moliyaviy kapital bilan birlashtirib, ko’paytma (multiplikativ) effektini yuzaga keltiradi.

Imzolangan memorandumlar, xorijiy ofislar ochish tashabbuslari, rezidentlar oqimining ortishi va B2B sessiyalar natijasida outsorsing kontraktlari hajmi kengaymoqda. “One Stop Shop” mexanizmi rezidentlik jarayonini tezlashtirib, tashqi bozorga chiqishdagi byurokratik to’siqlarni kamaytiradi. Natijada xizmatlar eksportining o’sishi nafaqat valyuta tushumlarini ko’paytiradi, balki yangi, to’g’ridan-to’g’ri ish o’rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

Yapon tilida IT mutaxassislarini tayyorlash tashabbusi, BPO (Business Process Outsourcing) me’yorlarining joriy etilishi hamda game-dev sohasida intellektual mulk (IP) madaniyatining shakllanishi kadrlar bozorini “eksportga tayyor” holatga keltirmoqda. Til kompetensiyasi (yapon, ingliz, koreys, arab tillari) bilan texnik standartlar (ISO, OWASP, ITIL, PMI) va servis metodologiyasi (SLA/OLA, QoS, NPS) uyg’unlashganda, bu eksportyor kompaniyalarning premium segmentga kirishini tezlashtiradi.

20 million dollarlik fond, 750 ming dollarlik bitimlar, AWS grantlari va transchegaraviy memorandumlar startaplari uchun muhim “iqtisodiy signal” vazifasini bajaradi. Kapital mavjudligi, hatto kichik paketlarda ham, prototiplash, minimal ishlaydigan mahsulot (MVP) yaratish va traksiyaning dastlabki bosqichlarida “ko’priklari moliyalashtiruvchi” (bridge financing) rolini o’taydi. “Investors Room”ning ikki yo’nalishli (Alpha/Beta) strukturasi esa startup rivojlanishining seed–growth oralig’idagi bo’shliqni to’ldirib, ekotizimdagi uzviylikni ta’minlaydi.

Yevrosiyo texnoparklari stendlari va qo’shma dasturlar mamlakatlararo komplementarlikdan samarali foydalanish imkonini beradi. Masalan, bir hududda kuchli rivojlangan sun’iy intellekt (AI) kompetensiyalarini boshqa hududlarning bozorga chiqish kanallari bilan integratsiya qilish orqali “kompozit qiymat zanjiri” yaratiladi. Bu yondashuv raqobatdan ko’ra kooperatsiya orqali tezroq masshtablash va innovatsion o’sishni ta’minlaydi.

Web Summit Spotlight, Global Startup Awards’dagi muvaffaqiyatlar va COP kabi global maydonlar bilan integratsiya O’zbekiston texnologik brendining xalqaro nufuzini oshiradi. Bunday reputatsion kapitalning o’sishi sarmoyadorlar idrokida mamlakatning “xavf darajasi”ni pasaytiradi, shu bilan birga startaplarning qiymatlash (valuation) multiplikatorlarini yaxshilaydi. Shu sababli, bu jarayonda regulyator barqarorligi, shaffoflik va kontrakt ijrosi kafolatlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

“ICT WEEK O’zbekiston 2025” mamlakatning texnologik rivojida yangi bosqich — institutsional brending va mintaqaviy integratsiya davrining mustahkamlanish bosqichini ifodaladi. Haftalik yakunlari O’zbekistonning raqamli ekotizimi global texnologik zanjirda “ijrochilik” modelidan “strategik sheriklik” modeliga o’tish jarayonida ekanini yaqqol ko’rsatdi. Buni quyidagi indikatorlar tasdiqlaydi: 9 memorandum, 0,9 million dollarlik investitsiya hujjatlari, 10 million dollarlik venchur kelishuvlari, 20 dan ortiq xorijiy ofis ochish tashabbusi, “One Stop Shop” orqali 15 xorijiy rezident jalbi, 1000 dan ortiq rejalashtirilgan ish o’rni, Web Summit Spotlight va Global Startup Awards’dagi rekord natijalar.

Autsorsing (BPO/ITO) sohasida xizmat sifati, tezkorlik va metodologik uyg’unlikni ta’minlaydigan institutsional servislarning shakllanishi, Yaponiya va Koreya yo’nalishlarida til–standart ko’priklarining rivojlanishi, game-dev yo’nalishida intellektual mulk kapitalizatsiyasi hamda venchur infratuzilmaning segmentlanishi — bularning



barchasi xizmatlar eksportining barqaror o'sishiga, ish o'rinlari yaratishga va valyuta tushumlarini ko'paytirishga multiplikativ (ko'pikli) ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelgusi fazada asosiy ustuvor yo'nalish — kadrlar va kapitalning barqaror oqimini yo'lga qo'yishdir. Bunda "yagona deraza" tizimini chuqurlashtirish, SLA/NPS metriklarini milliy metodikaga kiritish, seed-growth oralig'ida fondlar zanjirini to'ldirish, intellektual mulk (IP) fondlari va bulut kreditlari hajmini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Central Eurasian Venture Forum 2026'ni global LP (Limited Partner) va GP (General Partner)lar uchun "majburiy kalendar nuqtasi"ga aylantirish mamlakatning mintaqaviy venchur markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, integratsion klasterlar orqali mintaqa mamlakatlari o'rtasida "kompozit qiymat zanjiri"ni shakllantirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu yondashuv O'zbekistonning Markaziy Yevrosiyoning texnologik yadro davlati sifatidagi rolini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, ICT WEEK 2025 — bu shunchaki konferensiyalar majmuasi emas, balki siyosat, kapital va kompetensiyalarni yagona tizimga bog'lovchi strategik platformadir. U mamlakatni "kuzatuvchi-iste'molchi" maqomidan "yaratuvchi-hamkor" maqomiga o'tkazuvchi tezlakich mexanizmi vazifasini bajarmoqda. Mazkur tezida ilgari surilgan takliflar amalga oshirilsa, O'zbekistonning IT-xizmatlar eksporti, venchur likvidligi va IP iqtisodiyotidagi qiymati o'rta muddatda sezilarli darajada oshadi. Natijada, mamlakat Yevrosiyoning yangi texnologik makonida barqaror yetakchi pozitsiyani egallaydi.

## XULOSA

"ICT WEEK O'zbekiston 2025" mamlakatning texnologik rivojida yangi bosqich — institutsional brending, texnologik sheriklik va mintaqaviy integratsiya bosqichini belgiladi.

Autsorsing (BPO/ITO)xizmatlaridainstitutsionalservislarningshakllanishi, YaponiyavaKoreyayo'nalishlarida til-standart ko'priklarining rivojlanishi, game-dev sektorida intellektual mulk (IP) kapitalizatsiyasining chuqurlashuvi, shuningdek, venchur infratuzilmaning segmentlanishi — bularning barchasi xizmatlar eksporti o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish va valyuta tushumlarini ko'paytirishda multiplikativ ta'sir ko'rsatmoqda.

ICT WEEK 2025 — bu shunchaki konferensiyalar majmuasi emas, balki siyosat, kapital va kompetensiyalarni yagona tizimga bog'lovchi strategik inshootdir. U O'zbekistonni "kuzatuvchi-iste'molchi" maqomidan "yaratuvchi-hamkor" maqomiga olib o'tuvchi tezlakich mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalari va tavsiyalar amalga oshirilsa, O'zbekistonning IT-xizmatlar eksporti, venchur likvidligi va IP iqtisodiyoti qiymati o'rta muddatda sezilarli darajada oshadi. Bu esa mamlakatning Yevrosiyoning yangi texnologik makonidagi barqaror yetakchilik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. IT Park Uzbekistan. (2025). ICT WEEK Uzbekistan 2025: Official report and summary of outcomes. Tashkent: IT Park Press.
2. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. (2024). National Strategy for Digital Uzbekistan 2030. Tashkent: Government of Uzbekistan.
3. World Bank. (2023). Digital Transformation in Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, DC: World Bank Group.
4. OECD. (2022). Innovation, Startups and Venture Capital in Emerging Economies. Paris: OECD Publishing.
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2024). Information Economy Report 2024: The Digital Economy in Transition. Geneva: United Nations.
6. Asian Development Bank (ADB). (2023). Central Asian Digital Connectivity and Innovation Ecosystems. Manila: ADB Publications.
7. ITU (International Telecommunication Union). (2023). Measuring Digital Development: ICT Development Index 2023. Geneva: ITU.
8. StartupBlink. (2025). Global Startup Ecosystem Index Report 2025. Tel Aviv: StartupBlink Research Center.
9. VentureBeat & PitchBook. (2024). Global Venture Capital Trends and Emerging Markets Report. San Francisco: PitchBook Data.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)